

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**MUSINOV DILSHOD SULTANOVICH**

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA IQTISODIY O'SISHNING  
TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Musinov Dilshod Sultanovich**

Xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy o‘shishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish ..... 3

**Мусинов Дилшод Султанович**

Совершенствование организационно-экономических механизмов экономического роста в сфере услуг ..... 25

**Musinov Dilshod Sultanovich**

Improving organizational and economic mechanisms of economic growth in the service sector ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 53

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**MUSINOV DILSHOD SULTANOVICH**

**XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA IQTISODIY O‘SISHNING  
TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.PhD/Iqt3213 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.sies.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Artiqov Zokir Sayfiddinovich**  
PhD, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Ergashev Raxmatillo Xidirovich**  
iqtisod fanlari doktori, professor

**Murodova Nodira Qulievna**  
iqtisod fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/28.02.2022.I.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies\_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies\_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**M.E.Po'latov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**Sh.O.Kuvandikov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

**M.M.Muxammedov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda xizmat ko'rsatish sohalari o'zining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga, boshqa tomondan sohada mehnatni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra iqtisodiyot tarkibida tobora barqaror mavqega ega bo'lib bormoqda. "Jahonda iqtisodiy o'sish 2022 yilda 3,4 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda 2,9 %ni, 2024 yilga kelib esa 3,1 %ni, rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 2023 yilda 1,2 %ni va rivojlanayotgan mamlakatlarda 4,0 %ni tashkil etishi prognoz qilinmoqda"<sup>1</sup>. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini jarayonga individul yondashish va xizmat ko'rsatishni zamonaviy shakllarda tashkil qilish kabi tadbirlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda xizmat ko'rsatish sohasini jadal va samarali rivojlantirish bo'yicha samaradorlikni baholash mezonlari va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishidagi tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida xizmat ko'rsatish sohasini mavjud imkoniyatlar va istiqbol talablaridan kelib chiqqan holda uyg'un rivojlantirish, imkoniyatlarni xizmat ko'rsatish jarayoniga to'liq jalb etish, xizmat ko'rsatish (ishlab chiqarish)ni zamonaviy shakllarda va optimal tashkil qilish kabi yo'nalishidagi mavzularga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Bugungi kunda respublikada xizmat ko'rsatish sohasini sifat jihatdan rivojlantirish, xizmat ko'rsatish korxonalarini zamonaviy shakllarda tashkil qilish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va aholining turmush darajasi sifatini oshirishda soha ahamiyatini yanada yuksaltirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. «Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish. O'rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko'p bo'lgan tumanlarda zamonaviy bozor xizmatlari, IT, ta'lim, tibbiyot, yuridik, san'at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish»<sup>2</sup> vazifalari belgilangan. Bu vazifalarni hal etishda xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, inson kapitalini rivojlantirish va soha istiqbollari ilmiy asoslash kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 30-sentyabrdagi PF-6318-son "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 13 oktyabrdagi 825-son "Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qarori

<sup>1</sup> Xalqaro valyuta fondi. <https://www.imf.org/ru/Blogs/Articles/2023/01/30/global-economy-to-slow-further-amid-signs-of-resilience-and-china-re-opening>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2021 yil 14 dekabr kuni xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videosektor yig'ilishi. <https://xs.uz/uzkr/post/khizmatlar-sohasini-rivozhlantirish-bojicha-ustuvor-jonalishlar-belgilandi>

hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Servis iqtisodiyotining shakllanishi, resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik masalalarining ilmiy asoslari xorijlik olimlar<sup>3</sup>, jumladan, Keynes J.M., Marshall A., Fisher M., Haqsever K.X., Render B.R., Rassel R.S., Merdik R.G., Shumpeter Y.A., Levis V.A., Veyl D., Rostov V. va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasi rivojlanishining ilmiy-metodologik jihatlari xorijlik olimlar<sup>4</sup>, jumladan: Burmenko T.D., Romanovich V.K., Korobkova S.N., Kravchenko V.I., Orlov S.V., Pavlova I.P., Rumyanseva Ye.Ye. va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Ushbu muammolarni o'rganishga o'zbekistonlik olimlardan<sup>5</sup> Pardayev M.Q., Po'latov M.E., Muhammedov M.M., Zaynalov D.R., Mirzayev Q.J., Tuxliyev I.S., Aslanova D.X., Arabov N.U. va boshqalarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Iqtisodiy o'sish masalalari<sup>6</sup> O'lmacov A., Vaxobov A., Alimov R., Abdulqocimov H., Maxmudov N., Nabixujayev A., Yaxshiyeva M.T., Astanakulov O. va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

---

<sup>3</sup> Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Маршалл А. Принципы экономической науки / А.Маршалл: В 3 т. – М.: Прогресс-Т.3. 1984. -119 с.; Regional labor markets. Analytical contributions and cross-national comparisons. Ed. by. M.Fischer and P.Nijkamp. - Elsevier Science Publishing Co, 1987. -500 p.; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб и др.: ПИТЕР, ПИТЕР бух, 2002. – 751 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст] / Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Lewis W. Theory of economic growth. – Routledge, 2013. – 456 p.; Weil D. Economic growth. – Routledge, 2016.; Rostow W. W. The stages of economic growth //Sociological Worlds. – Routledge, 2013. – С. 130-134.

<sup>4</sup> Бурменко Т. Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т. А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. - М.: КНОРУС, 2007. – С. 661; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб, 2002. – 751 с.; Романович В.К. Сервисная деятельность: учеб. пос.: под общ. ред В.К.Романович. / С.Н.Коробкова, В.И.Кравченко, С.В.Орлов, И.П.Павлова – 3-е изд. – СПб.: Питер, 2005. – 156 с.; Румянцева Е.Е. Новая экономическая энциклопедия: 4-е изд. – М.: ИНФРА-М, 2011. - XII, 882 с. + DVD-R, - С. 717-718.

<sup>5</sup> Pardayev M.Q., Isroilov J.I., G'apparov A.Q. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish muammolari. Risola. Samarqand. «Zarafshon», 2009. - 66 b.- 4,1 b.t.; Po'latov M.E., Mirzayev Q.J., Sultonov Sh.A., Shavqiyev E. Global iqtisodiy rivojlanish (turizm iqtisodiyoti).O'quv qo'llanma.T.: Fan va texnologiya, 2018. – 296 b.; Мухаммедов М.М. и др. Экономика торговли. Самарканд.1998.с.282; Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журналы. Самарканд: 2009, 1-сон. 70-77 бетлар. – 0,6 б.т.; Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 332 b.; Arabov N.U., Artikov Z.S. Servis korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish. Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali//Samarqand, SamDU, № 1, 2021, 153-164 b; Асланова Д.Х. Трудоёмкость продукции общественного питания и резервы её снижения: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук.- Киев. 1992 – С. 20.

<sup>6</sup>Pardayev M.Q., Mamasoatov T.X., Pardayev O.M., Modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsiya-iqtisodiy

Ammo yuqorida keltirilgan olimlarning asarlarida xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ayrim jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish jarayonlarida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari kompleks tadqiqot sifatida qisman o'z aksini topgan. Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq tadqiqotlar yetarli darajada emasligi ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni zarurat etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi-ning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

“iqtisodiy o'sish” kategoriyasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ilmiy-nazariy tahlil qilish hamda mualliflik yondashuvini shakllantirish;

xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sish tamoyillari, omillari va institutsional shart-sharoitlarini aniqlash;

xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari tasnifini ishlab chiqish;

Samarqand viloyati xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy rivojlanish holati va ko'rsatkichlarini tahlil etish;

hududiy xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishning omilli tahlilini amalga oshirish;

xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishning ekonometrik tahlilini amalga oshirish;

xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil sifatida investitsion loyihalar samaradorligini oshirish;

hududiy xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy rivojlanishini istiqbollashtirish yo'nalishlari bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Samarqand viloyati xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlari faoliyati olingan.

---

o'sishning muhim omillari. Monografiya.-T.: "Navro'z", 2014. -104 bet, Maxmudov N., Hakimov X.A. Iqtisodiy o'sish modellari va ulardan makroiqtisodiy tahlilda foydalanish yo'nalishlari // Ekonomika i finansi (O'zbekistan). – 2016. – №. 3. – S. 1-7.; Alimov R. Iqtisodiy o'sishning matematik modellari //Arxiv nauchnix issledovaniy. – 2020. – №. 30.; Yaxshiyeva M. T. Barqaror iqtisodiy o'sish-mamlakat raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili //Ekonomika i finansi (O'zbekistan). – 2016. – №. 1. – S. 28-34.; O'lmasov A., Vaxobov A. "Iqtisodiyot nazariyasi". Darslik.T.: "Iqtisod-Moliya", 2014 y.; Abdulqosimov H. "Makroiqtisodiy taptibga solish va O'zbekistonning barqaror rivojlanishi. Monografiya". T. : "Akademiya", 2011 y.; Nabixujaev A., Sherov Yu., Sultonov P. Makroiqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlari va ularning O'zbekistondagi dinamikasi. // Iqtisod va Moliya. №2 2011.; Astanakov O., Asatullayev X. O'zbekistonda investitsiyalarning iqtisodiy o'sish va aholi turmush farovonligiga ta'siri tahlili // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2022. – T. 10. – №. 6. – B. 73-81.

**Tadqiqotning predmetini** xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, ekonometrik modellashtirish, prognozlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ustuvor darajada mehnat unumdorligini oshirish, jami su'bektlar vertikal va gorizontal integratsiyasini optimal chuqurlashtirish, yangi va innovatsion xizmat turlarini kengaytirish va iste'molni individuallashtirish kabilarga ko'ra ta'minlash asoslangan;

xizmat ko'rsatish sohasini strategik rivojlantirishni boshqarish va iqtisodiy o'sishga yondashuv inson kapitalini takror ishlab chiqarishga oid innovatsiyalar ustuvorligi va texnologik mahsulot va inson kapitali investitsiyalari (innovatsiyalari) muvozanatiga ko'ra takomillashtirish hamda intensiv ( $I_r > 1$ ) va ekstensiv ( $I_r < 1$ ) omillar mutanosibli zarurati asoslangan;

sohada innovatsion loyihalar samaradorligiga yondashuv innovatsiya guruhlari tarkibida xizmatlar iste'mol qiymatini oshirish, innovatsion turlarni o'zgartirish, mehnat sharoitlarini yaxshilashga ustuvorlik berish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishga ko'ra takomillshatirilgan;

Samarqand viloyatida xizmatlar sohasining iqtisodiy o'sish darajasi va jami ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi o'sishining 2028 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

xizmat ko'rsatish sohasi barqaror rivojlanishining ilmiy asosi sifatida "iqtisodiy o'sish" kategoriyasining iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

sohada investitsiy jozibadorlikni oshirish, innovatsion faoliyatni samarali boshqarish va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini amaliyotga joriy etishning maqsadli dasturlarini realizatsiya qilish asosida xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion-investitsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va samarali rivojlantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishning ilmiy ahamiyatini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xizmat taklif va tavsiyalar ko'rsatish sohasida mehnat unumdorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish (tayyorlash), korxonalarini



innovatsion rivojlantirish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish hamda o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari bo'icha olingan ilmiy natijalar asosida:

xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ustuvor darajada mehnat unumdorligini oshirish, jami su'bektlar vertikal va gorizontal integratsiyasini optimal chuqurlashtirish, yangi va innovatsion xizmat turlarini kengaytirish va iste'molni individuallashtirish kabilarga ko'ra ta'minlash taklif O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan "2023-2024 yillarda respublikada xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini tayyorlashda foydalanilgan (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 9 fevraldagi 04/30-2-324-son ma'lumotnomasi). Taklifdan foydalanish xizmat ko'rsatish sohasida mavjud imkoniyatlarni ishlab chiqarishga to'laroq jalb etish, noratsional jarayonlarni bartaraf etish va iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillardan maksimal foydalanishga ko'ra sohani samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

xizmat ko'rsatish sohasini strategik rivojlantirishni boshqarish va iqtisodiy o'sishga yondashuv inson kapitalini takror ishlab chiqarishga oid innovatsiyalar ustuvorligi va texnologik/mahsulot va inson kapitali investitsiyalari (innovatsiyalari) muvozanatiga ko'ra takomillashtirish hamda intensiv ( $I_r > 1$ ) va ekstensiv ( $I_r < 1$ ) omillar mutanosibligi taklifi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan "2023-2024 yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini tayyorlashda foydalanilgan (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 9 fevraldagi 04/30-2-324-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish xizmat ko'rsatish sohasida 2022 yilda iqtisodiy o'sish darajasining umumiy indeksini 1,06 koeffitsiyentga oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

sohada innovatsion loyihalar samaradorligiga yondashuv innovatsiya guruhlarini tarkibida xizmatlar iste'mol qiymatini oshirish, innovatsion turlarni o'zgartirish, mehnat sharoitlarini yaxshilashga ustuvorlik berish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishga ko'ra takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan "2023-2024 yil-larda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini tayyorlashda foydalanilgan (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 9 fevraldagi 04/30-2-324-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion loyihalarni realizatsiya qilish asosida yuqori texnologik, fan sig'imi yuqori xizmatlarning raqobat ustunligini ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

Samarqand viloyatida xizmatlar sohasining iqtisodiy o'sish darajasi va jami ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi o'sishining 2028 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan hududiy xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi

Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 9 fevraldagi 04/30-2-324-son ma'lumotnomasi). Prognoz ko'rsatkichlari Samarqand viloyatida jami xizmatlar hajmi va xizmat ko'rsatish sohasidagi investitsiyalar hajmini muayyan darajada oshirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, respublika miqyosidagi 4 ta va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 140 betni tashkil etgan.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sish va rivojlanishni tavsiflovchi ilmiy yondashuvlarni nazariy jihatdan tahlil etish asosida “iqtisodiy o'sish” kategoriyasining iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan hamda sohada iqtisodiy o'sish tamoyillari, omillari va institutsional shart-sharoitlari aniqlangan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari tasnifi ishlab chiqilgan.

Xizmat ko'rsatish sohasi xo'jalik sub'ektlari faoliyatining natijadorligi istiqbolli strategiyani ishlab chiqilganligiga bog'liq holda, uni realizatsiya qilish va iqtisodiy o'sishga erishish yuqori boshqaruv rahbariyatining asosiy vazifasi hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarida iqtisodiy o'sishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmi ekzogen va endogen muhitning o'zgarish shart-sharoitlariga bog'liq bo'lib, xizmatlar bozorida yuqori mavqega ega bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni tadqiq etishda, uning qanchalik o'ziga xos rivojlanish tendensiyasiga ega ekanligini aytish zarur. Bunda asosiy sabab xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari, shuningdek ushbu sohada ishlayotgan xodimlar aholi ehtiyojlarining asosiy qismini qondirishga qodirdir. Xizmat ko'rsatish sohasida “iqtisodiy o'sish”ga muayyan darajada tavsif berish va xo'jalik

sub'ektlarining o'rnini va ahamiyatini aniqlashda ushbu kategoriyaning mohiyatini aniqlash, uning "iqtisodiy rivojlanish" tushunchasi bilan farqli jihatlarini tadqiq qilish zarur. Chunki, ushbu kategoriyalar mohiyati va mazmuni jihatdan bir-birini to'ldirsada ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish nuqtai nazarida farq qiladi. Shuning uchun xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlar va shart-sharoitlarga ega. Bunda muayyan omillar ta'sirini ifodalovchi mazkur sohada iqtisodiy o'sish va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va tendensiyalarini nazariy jihatdan yoritib berish alohida ahamiyatga ega.

Muallif yondashuviga ko'ra, iqtisodiy o'sish – bu ko'p omilli tavsifga ega o'lchash murakkab bo'lgan jarayon sifatida yalpi ichki mahsulotning ijobiy dinamikasi asosida milliy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish real hajmining mutlaq va aholi jon boshi hamda iqtisodiy resurs harajatlari birligi hisobiga o'sishi, sifatining yaxshilanishi va tarkibining takomillashuvidir.

### 1-jadval

#### Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash tamoyillari<sup>7</sup>


Tamoyillar	Mazmuni
Resurslarni adolatli taqsimlash	Resurslarni adolatli ravishda taqsimlash jamiyat barcha azolari uchun ne'matlarni tanlash imkoniyatlarini kengaytiradi, shuningdek turmush sifatini oshirish negizini yaratadi. Daromadlar va inson turmushi o'rtasidagi bog'liqlik soliq-byudjet va ijtimoiy siyosat choralari qamrab oladigan davlat strategiyasi yordamida shakllantirilishi kerak.
Kognitivlik (intensiv rivojlanish)	Bu tamoyilning mazmuni iqtisodiy tizimga munosabatlar bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash nafaqat uning ustuvor tarmoqlari va yo'nalishlarini rivojlantirishga, balki bilim orttirish, inson kapitalini rivojlantirish, innovatsiyalarga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Innovatsion iqtisodiyot doimo rivojlanadi, takomillashadi, transformatsiya-lashadiki, buning natijasida iqtisodiyot ham miqdor jihatdan, ham sifat jihatdan barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega bo'ladi.
Iqtisodiyot moslashuvchanligi	Mazkur tamoyil iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarga asoslangan holda rivojlanishning "moslashuvchan" usullarini joriy qilish zarurati, makroiqtisodiy holatlarning dinamik o'zgarishiga moslashuvchan munosabat bildirish, makro va mikro darajalarda moslashuvchan munosabatlarni shakllantirish, jamiyatda innovatsion xulq-atvor motivatsiyasini rag'batlantirish, innovatsion biznesni kengaytirish kabilarni ifodalaydi.
O'zaro muvofiqlik va integratsiya	Bu tamoyil mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror, jadal va mutanosib ravishda rivojlantirish, xizmat ko'rsatishning asosiy tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va eksport salohiyatini o'stirishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, tarmoqlar, komplekslar va xizmat ko'rsatish korxonalarini modernizatsiyalash, xizmat ko'rsatish jarayonlarini texnik va texnologik yangilash asosida ularning samaradorligi hamda raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat.
Komplekslilik	Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash uning tarmoqlarini rivojlantirishning aniq, chuqur va har tomonlama puxta o'ylangan uzoq muddatli rejalarini ishlab chiqish, shu asosda asosiy tarmoqlarni diversifikatsiya qilishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirishni nazarda tutadi.
Sohada mehnat unumdorligini oshirish	Jahon bozorida doimiy haridorgir bo'lgan, qo'shilgan qiymat ulushi yuqori raqobatdosh xizmatlar ko'rsatish, mehnat unumdorligini o'stirish, xizmat ko'rsatish harajatlari va xizmatlar tannarxini izchil pasaytirish, energiya va resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish choralari ishlab chiqish kerak.

<sup>7</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash jamiyatdagi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zaruriy sharti sifatida xizmat ko'rsatish jarayoni va uning tarmoq xususiyatlariga bevosita bog'liqdir. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash tamoyillari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlari ta'sirida muayyan maqsad va vazifalarni amalga oshirish jarayonidagi ilmiy asoslangan qoidalarni aks ettiradi. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash bir qator tamoyillarga asoslanishi kerakki, bunda iqtisodiy rivojlanish mexanizmlari iqtisodiy o'sish samaradorligini oshishi va aholi jon boshiga sohadagi yalpi mahsulotning aholi jon boshiga real o'sishi imkonini berishi zarur (1-rasm).

Ayrim davlatlarda iqtisodiy o'sish yuqori, boshqalarda esa past darajada ifodalanadi. Mamlakatlar rivojlanishida ushbu ko'rsatkich vaqt bilan bog'liq turli holatlarda namoyon bo'ladi. Shuningdek, qisqa va uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uning omillari hajmi va darajasi o'zgarishi bilan ham o'rganiladi. Qisqa muddatli iqtisodiy o'sishda mehnat va kapital omillaridan foydalanish davri o'zgarishi nazarda tutilsa, uzoq muddatlida ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)dagi omillar hajmi va texnologiyalarning o'zgarishi nazarda tutiladi.

Tadqiqot jarayonida, muallif tomonidan, resurslarni ratsional taqsimlash, xizmat ko'rsatish korxonalarini o'rtasida integratsiyasini kengaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, xizmat turlarini diversifikatsiyalash hamda iste'molchilarning xizmatlarga xususiy (maxsus) talablarini to'liq qondirish asosida xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sish samaradorligiga erishish taklifi asoslandi. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash sohada iqtisodiy o'sish maqsadlariga erishish, iqtisodiy o'sish turining ustuvorligi, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari, iqtisodiy o'sish samaradorligi, iqtisodiy o'sishdagi ziddiyatlar, iqtisodiy o'sish omillari tizimidan iborat xususiyatlar va jihatlarini o'z ichiga oladi (1-rasm):




**1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishning o'ziga xos jihatlarini<sup>8</sup>**

Xizmat ko'rsatish sohasida yalpi mahsulot hajmi o'zgarishini uslubiy jihatdan o'rganishda unga ta'sir etuvchi asosiy omillarning bog'liqligini o'rganish muhimdir. Bunda sohada yalpi mahsulotni yaratishga ishtirok etuvchi asosiy omillar sifatida mehnat va kapital asosiy o'ringa ega. Xizmat ko'rsatish sohasida

<sup>8</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

yalpi mahsulot hajmining barqaror o‘shirishini yanada jadallashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim: xizmat ko‘rsatish sohasining zamonaviy tarmoqlarini rivojlantirish va yalpi mahsulot hajmini tarkibiy o‘zgartirish, ya’ni raqamli xizmatlar ko‘rsatishni diversifikatsiyalash; sohada xususiy mulk va xururiy tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish; sohada bandlik darajasini oshirish va undan samarali foydalanish; yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi xizmat ko‘rsatish korxonalarini rivojlantirish va kiritiladigan investitsiyalar samaradorligini oshirish; faoliyat ko‘rsatayotgan xizmat ko‘rsatish korxonalarini innovatsion rivojlanishini ta’minlash va xizmat ko‘rsatish jarayonlarining texnik va texnologik jihatdan yangilash; barqaror iqtisodiy o‘shirishni ta’minlash bo‘yicha resurs salohiyatini oshirish; xizmat ko‘rsatish jarayonlarini raqamlashtirish va sun’iy intellektdan keng foydalanish.



**2-rasm. Xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy o‘shirish mezonlari<sup>9</sup>**

Xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy o‘shirish samaradorligi jamiyatning rivojlanish maqsadlariga erishishda resurs tejamlilikka rioya etgan holda iqtisodiy samaradorlikning yakuni ko‘rsatkichi bo‘lib, u kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida ham, ijtimoiy va ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) faoliyatida ham inson faoliyatiga ta’sir qiladi. Iqtisodiy o‘shirishning yakuniy maqsadi bo‘lib, milliy xavfsizlikni zaruriy darajada qo‘llab-quvvatlash va aholining moddiy farovonligini oshirish hisoblanadi. Xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy o‘shirish zamiridagi zamonaviy yondashuvlarda odatda tabiiy ahamiyatga ega bo‘lgan xizmat ko‘rsatish hajmining real ko‘payib ketishi va qisqa muddatli ravnaqi emas, balki uzoq muddatli vaqt oralig‘idagi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishiga bog‘liq bo‘lgan xizmat ko‘rsatish real hajmi tabiiy darajasining uzoq muddatli o‘shishi tushuniladi.

Hozirgi kunda xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy o‘shirish samaradorligini har tomonlama chuqur o‘rganish va tushunish uchun alohida uning mezonlari va ko‘rsatkichlarini tasniflash zarurdir. Xizmat ko‘rsatish resurslardan samarali

<sup>9</sup> Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

foydalangan holda aholining xizmatlarga bo'lgan talablarni to'liq va sifatli qondirish asosida yuqori natijadorlikka erishish xizmat ko'rsatish faoliyati samaradorligining bosh mezonini hisoblanadi (2-rasm).

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari tajribasi shundan dalolat beradiki, xizmat ko'rsatish sohasi faoliyatining samaradorligi hamda iqtisodiy o'sishi xizmat ko'rsatish xususiyatlari va sharoitlariga bog'liq bo'lib, bir qator omillar ta'siri bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, biz, hududiy darajada xizmat ko'rsatish tarmoqlari va yo'nalishlarida iqtisodiy o'sishning omilli tahlili bo'yicha ko'rsatkichlarni tizimlashtirish zarur. Bunda asosiy maqsad iqtisodiy o'sishning intensiv va ekstensiv omillarini xizmat ko'rsatish faoliyatining iqtisodiy o'sishiga ta'sirini aniqlash asosiy maqsad hisoblanadi. O'tkazilgan omilli tahlil doirasida ekstensiv va intensiv omillar indeksi taqqoslash usuli orqali iqtisodiy o'sish shakli belgilanadi<sup>10</sup>.

Iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining rivojlanish samaradorligi ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) xususiyatlari va sharoitlariga bog'liq bo'lib, turli xil omillarning ta'siri bilan belgilanadi. Ushbu jarayon iqtisodiy o'sishning intensiv hamda ekstensiv omillarini taqqoslashning integral baholash usuli orqali amalga oshiriladi.

Iqtisodiy o'sish dinamikasining umumiy indeksi quyidagi formula asosida hisoblanadi<sup>11</sup>:

$$I_r = \frac{I_{mu} \times I_{fq}}{I_n \times I_{af}},^{12} \quad (1)$$

bu yerda:  $I_r$  – iqtisodiy o'sishning umumiy indeksi;  $I_{mu}$  – mehnat unumdorligi indeksi;  $I_{fq}$  – fondlar qaytimi indeksi;  $I_{af}$  – asosiy fondlar indeksi;  $I_n$  – sohada band bo'lganlar indeksi.

Bunda  $I_r > 1$  bo'lsa, iqtisodiy o'sish intensiv, agarda  $I_r < 1$  bo'lsa, u holda iqtisodiy o'sish ekstensiv omillar ta'sirida sodir bo'ladi.

Dissertatsiya ishining **“Samarqand viloyati xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy rivojlanish holati va ko'rsatkichlari tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish holati va ko'rsatkichlari hamda hududiy xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sish omillari taqqoslama tahlil qilingan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishning ekonometrik tahlili amalga oshirilgan.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi bugungi kunda butun milliy xo'jalik majmuasini rivojlantirish uchun juda dolzarbdir, chunki bu tarmoqning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni nafaqat uning iqtisodiyot tarkibida ustunligi bilan, balki shu bilan birga, xizmatlar ilmiy faoliyat, bilimlar, jamg'arishning nomoddiy shakllari, axborot texnologiyalari, shuningdek, iqtisodiy faoliyatning globallashuvi kabi iqtisodiy o'sishning asosiy omillari rivojlanishiga olib kelmoqda.

<sup>10</sup> Беляев К.К Проблемы измерение затрат и результатов на предприятии. Иркутск, ИГЭА, 1999. – С. 104.

<sup>11</sup> Рубцова Н.В. Оценка эффективности сервисной деятельности. // Дисс. кан. экон. наук. – Иркутск: 2006. – С. 171.

<sup>12</sup> Рубцова Н.В. Оценка эффективности сервисной деятельности. // Дисс. кан. экон. наук. – Иркутск: 2006. – С. 171.

Samarqand viloyati rivojlanishining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari <sup>13</sup>

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
1.	YAHM	mlrd.so'm	32863,7	39050,5	43386,6	53749,9	62440,3
		O'tgan yilga nisbatan, %	100,7	105,6	102,4	108,8	105,8
2.	Yalpi qo'shilgan qiymat	mlrd.so'm	30659,5	36479,7	42478,3	52640,7	60866,2
		O'tgan yilga nisbatan, %	101,3	104,0	102,4	108,8	105,7
3.	Mahsulotlar-ga sof soliqlar	mlrd.so'm	574,0	1114,2	908,3	1109,2	1574,1
		O'tgan yilga nisbatan, %	109,0	108,4	107,8	108,8	109,7
4.	Sanoat mahsuloti (qurilishni qo'shgan holda)	mlrd.so'm	6216,7	7206,0	8654,9	10523,1	13474,5
		O'tgan yilga nisbatan, %	114,1	110,5	107,1	112,9	109,3
5.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	mlrd.so'm	15295,1	16862,4	19225,8	22672,3	24652,2
		O'tgan yilga nisbatan, %	94,4	102,9	102,7	103,3	103,6
6.	Jami xizmatlar, shundan:	mlrd.so'm	10595,9	13583,3	14234,2	18589,0	22739,5
		O'tgan yilga nisbatan, %	103,1	105,9	97,4	112,6	106,3
10.	Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	mlrd.so'm	1966,3	2411,1	2680,8	3350,6	4190,8
		O'tgan yilga nisbatan, %	103,1	106,9	100,3	112,1	111,0
11.	Tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	mlrd.so'm	2087,2	2329,3	2482,1	3299,6	3876,6
		O'tgan yilga nisbatan, %	105,9	104,5	98,3	122,8	110,9
12.	Boshqa xizmatlar	mlrd.so'm	6542,4	8842,8	9071,3	11938,9	14672,1
		O'tgan yilga nisbatan, %	102,1	106,1	96,4	110,0	103,7

Samarqand viloyatida yalpi hududiy mahsulot hajmi 2018-yilda o'tgan yilga nisbatan 100,7 %ga o'sgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2022-yilda o'tgan davrga nisbatan 105,8 %ni tashkil qilgan. Hududda yalpi qo'shilgan qiymat hajmi o'tgan yilga nisbatan 2018-yilda mos ravishda 101,3% va 2022-yilda 105,7 %ga o'sgan. Sanoat mahsuloti (qurilishni qo'shgan holda) hajmi 2018-yilda o'tgan yilga nisbatan 114,1 %ni, 2022-yilda esa 109,3 %ni tashkil etgan. Viloyatda xizmat ko'rsatish hajmi (2018-yil – 103,1%, 2022-yil – 106,3%) qishloq xo'jaligiga nisbatan yuqoriroq sur'atlarda o'sgan. Xususan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 2022-yilda 111,0 %ga oshgan. Respublikamizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari hajmini barqaror o'sish sur'atlarda rivojlanishi (2022-yilda 110,9%)ni ta'minlagan. Ayniqsa, aloqa va axborot xizmatlari sohasi kengayib, unda yaratilgan yalpi mahsulot hajmi oshib bormoqda (2-jadval).

Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sish jarayoni bir qator miqdoriy va sifat o'zgarishlar vositasida namoyon bo'ladi. Shulardan birinchi navbatda sohaning tarkibiy transformatsiyasini alohida ko'rsatish kerak. Iqtisodiy o'sishni

<sup>13</sup> Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

ko‘zlagan mamlakatlarda birinchi navbatda xizmat ko‘rsatish sohasining milliy mahsulot va bandlikdagi ulushini oshirish harakterlidir. Shuni ta’kidlash kerakki, xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarining rivojlanishining sanoat ishlab chiqarishiga nisbatan o‘ziga xos jihati, sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi muntazam o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lsa, xizmat ko‘rsatishda esa uning ba’zi tarmoqlarida vaqt o‘tib borishi bilan mehnat unumdorligi ham pasayish tendensiyasiga ega bo‘ladi. Respublikamizda xizmat ko‘rsatish sohasini kengayishi, unda ilmiy salohiyatga ega kadrlar tayyorlanishi, zamonaviy tarmoqlarning rolini ortib borishi, kichik innovatsion korxonalarini rivojlantirish, xizmatlar bozorida raqobat muhitini ta’minlanishi resurs salohiyati darjasiga ko‘proq bog‘liqdir.

Samarqand viloyati xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy o‘shish omillari tahlilini (1) formulada keltirilgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida amalga oshiramiz. 3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, viloyatda sanoat, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari va xizmat ko‘rsatish sohasida intensiv omillar (mehnat unumdorligi va fondlar qaytimi) ta’siri bir muncha yuqoriroqdir. Mehnat intensivligining o‘zgarishi ham sub’ektiv, ham ob’ektiv omillarga bog‘liq. Intensivlik ishchi-xodimlarning irodasi va ongi ishtirokida o‘zgaradi yoki muayyan sabablarga ko‘ra, uni kamaytirish yoki ko‘paytirishni xodimning o‘zi hal qiladi.

### 3-jadval

#### Samarqand viloyati sanoat, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari va xizmat ko‘rsatish sohada mehnat unumdorligi ( $I_{mu}$ ) va fondlar qaytimi ( $I_{fq}$ ) darajasining indeksleri<sup>14</sup>

Yillar	Iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari					
	Sanoat		Qishloq xo‘jaligi		Xizmat ko‘rsatish sohasi	
	$I_{mu}$	$I_{fq}$	$I_{mu}$	$I_{fq}$	$I_{mu}$	$I_{fq}$
2018	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0
2019	1,14	1,09	1,1	0,92	1,26	0,99
2020	1,25	0,97	1,21	1,0	1,1	0,99
2021	1,17	0,96	1,11	1,02	1,26	1,05
2022	1,24	1,05	1,07	1,03	1,16	1,04

Shuningdek, xizmat ko‘rsatish soha va tarmoqlarida band bo‘lganlar soni ( $I_n$ ) va asosiy fondlar ( $I_{af}$ ) dinamikasi indeksleri 1,0 koeffitsiyentdan nisbatan yuqori ekanligi ekstensiv omillar ta’siri ustunligini ifodalaydi. Mehnatning ekstensivlik xususiyatlari boshqa xususiyatlar o‘zgarmagan holda ish vaqtdan foydalanish darajasi va uning smenadagi davomiyligini aks ettiradi (4-jadval).

Viloyat iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishining dastalabki yillarida sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlari hamda xizmat ko‘rsatish sohada iqtisodiy o‘shish intensiv omillar hisobiga erishilgan (ya’ni, mehnat unumdorligi va fondlar qaytimi). Shuning uchun ham viloyatda sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlari hamda xizmat ko‘rsatish sohada iqtisodiy o‘shishning intensiv va ekstensiv omillari ta’siri darajalariga qarab tahlil etish va baholash muhim ahamiyatga ega.

<sup>14</sup> Muallif tomonidan Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.



**4-jadval**

**Samarqand viloyati sanoat, qishloq xo'jaligi tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohada band bo'lganlar soni ( $I_n$ ) va asosiy fondlar ( $I_{af}$ ) dinamikasi indeksleri<sup>15</sup>**

Yillar	Iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari					
	Sanoat		Qishloq xo'jaligi		Xizmat ko'rsatish sohasi	
	$I_n$	$I_{af}$	$I_n$	$I_{af}$	$I_n$	$I_{af}$
2018	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0
2019	1,02	1,09	1,01	1,21	1,02	1,29
2020	0,96	1,21	0,94	1,14	0,95	1,06
2021	1,04	1,28	1,07	1,15	1,03	1,24
2022	1,04	1,20	1,02	1,06	1,06	1,07

Samarqand viloyati sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari hamda xizmat ko'rsatish sohada iqtisodiy o'sishning umumiy indeksini aniqlashda mehnat unumdorligi dinamikasi, fondlar qaytimi, band bo'lganlar soni va asosiy ishlab chiqarish fondlari indeksi hamda ushbu soha va tarmoqlarning iqtisodiy o'sish dinamikasi hisoblab chiqildi va ular quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

**5-jadval**

**Samarqand viloyati sanoat, qishloq xo'jaligi tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohada iqtisodiy o'sish darajasining umumiy indeksi<sup>16</sup>**

Yillar	Iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari		
	Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Xizmat ko'rsatish sohasi
2019	1,12	0,83	0,95
2020	1,04	1,13	1,08
2021	0,84	0,93	1,04
2022	1,04	1,02	1,06

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Samarqand viloyatida 2019-2022 yillar mobaynida sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari hamda xizmat ko'rsatish sohada iqtisodiy o'sish asosan intensiv omillarni ( $I_r > 1$ ) o'zgarishi hisobiga erishilgan, ya'ni mehnat unumdorligi va fondlar qaytimi indekslarining oshishi hisobiga o'sgan.

Lekin, tahlil etilayotgan davrlar oralig'ida tahlil etilayotgan soha va tarmoqlarda 2022-yilda iqtisodiy o'sishga intensiv omilning ta'siri yuqori bo'lgan, lekin 2021 yilda sanoat va qishloq xo'jaligida ekstensiv omil ta'siri yuqori bo'lgan. Xizmat ko'rsatish sohasida esa faqatgina 2019-yilda ekstensiv omillar ta'siri ustun bo'lgan. Jumladan, sohada band bo'lganlar va mazkur soha tarmoqlarida asosiy fondlar qiymatini oshishi ekstensiv o'sish tendensiyasiga to'g'ri mutanosiblikda ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimiz xizmat ko'rsatish sohasida yaratilgan yalpi mahsulot hajmini ekonometrik tahlili iqtisodiy-matematik usullar vositasida murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning bog'liqlik kuchi hamda ularning qonuniyatlarini aniqlash va tajriba orqali kuzatish imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish

<sup>15</sup> Muallif tomonidan Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

<sup>16</sup> Muallif tomonidan Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

sohasida yaratilgan yalpi mahsulot hajmi o‘shining ekonometrik modeli ishlab chiqildi. Modelning statistik tanlanmasiga Samarqand viloyatining 2011-2022 yillar davomidagi rivojlanishining tegishli ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari kiritildi. Bu jarayonda natijaviy ko‘rsatkich hisoblangan “xizmat ko‘rsatish sohasida yaratilgan yalpi mahsulot hajmi”ga tanlanmaga kiritilgan omillarning ta’sir etish darajasi aniqlandi.

Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasida yaratilgan yalpi mahsulot hajmiga ta’sir etuvchi omillar tahlili orqali ishlab chiqilgan modelda F-Fisher mezonining haqiqiy qiymati  $F_{\text{haqiqiy}}=3,11$ . Shuningdek, erkinlik darajalari soni surat bo‘yicha  $\gamma_1=5$  va maxraj bo‘yicha  $\gamma_2=12$  ga teng bo‘lganda Fisher mezonining jadval qiymati (mohiyatlik darajasi  $\alpha=0,05$ da) uchun  $F_{\text{jadval}}=2,85$ . Demak, hosil qilingan ko‘p omilli regressiya tenglamamiz ahamiyatli hisoblanadi (6-jadval).

#### 6-жадвал

#### Modelning sifati va ahamiyatini tekshirish mezonlari<sup>17</sup>

Ko‘p omilli korrelyatsiya koeffitsiyenti R	Ko‘p omilli determinatsiya koeffitsiyenti R-kvadrat	Korrektlashtirilgan R-kvadrat	Baholashning standart xatosi	F-haqiqiy	P-qiymat	DW
0,999	0,999	0,999	99,31	9175,9	0,009	3,11

6-jadvalda keltirilgan  $R^2$  determinatsiya koeffitsiyenti 0,999 ga teng bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich natijaviy omil bilan tanlab olingan ta’sir etuvchi omillar o‘rtasida bog‘lanish yetarlicha zich ekanligini ko‘rsatadi, ya’ni xizmat ko‘rsatish sohasida yaratilgan jami xizmatlar hajmi (Y) 100 % ko‘p omilli ekonometrik model uchun tanlab olingan ta’sir etuvchi omillarga, qolgan 1 % esa hisobga olinmagan omillarga bog‘liqdir.

#### 7-жадвал

#### Chiziqli regression modelga kiritilgan ahamiyatli omillar<sup>18</sup>

	Standartlashtirilmagan koeffitsiyentlar		Standartlash-tirilgan koeffitsiyentlar	t-mezon	P-miqdor
	B	Standart xato	Beta		
(Konstanta)	7925,73	2136,3		3,71	0,009
X <sub>2</sub>	0,1751	0,06	0,18	3,14	0,02
X <sub>3</sub>	-0,072	0,06	0,06	-1,21	0,27
X <sub>5</sub>	1,3	0,08	1,02	15,47	4,6
